

“JOME’UL XUTUT” ASARI TOSHBOSMA NUSXALARI***Azizova Feruza Ravshan qizi****O‘zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi**2-kurs magistranti*azizovafr@gmail.com

Anotatsiya: *Ushbu maqolada buyuk vatandoshimiz, jadidchilik harakatining yirik namoyandasi Is’hoqxon Ibrat ilmiy merosini yanada chuqurroq o‘rganish, Is’hoqxon Ibratning “Jome’ul xutut” asari toshbosma nusxalari hamda ularning qayerlarda saqlanishini o‘rganishga uriniladi.*

Kalit so‘zlar: *toshbosma nusxa, matbaa, xattotlik, xat, litografiya, toshqolip, “Matbai Is’hoqiya”.*

XIX asr ikkinchi yarmida Turkistonda ochilgan tipo-litografik korxonalar o‘zbek matnshunosligida yangi dunyoni ochib berdi. Asli litografiya so‘zi grekcha “litos” - tosh, “grapho” - yozmoq so‘zlaridan olingan. XIX asr o‘rtalariga kelib, Turkiston o‘lkasiga rus matbuoti orqali toshbosma - litografiya usulida kitoblarni chop etish kirib keldi. O‘rta Osiyoda ilk litografiya Toshkentda 1868-yili Turkiston general gubernatorligi harbiy shtatida tashkil qilindi. Bu tipo-litografiyada, asosan, harbiy mahkamaga oid ishlar amalga oshirildi.

Turkistonda kitob bosishning ikki xil uslubi qo‘llanilgan. Birinchisi tipografik usul bo‘lib, unda mix shaklidagi metall harflarni qo‘lda terish orqali kitob bosilgan. Bunda arab yozuvining nasx yozuvidan keng foydalanilgan. Ikkinchisi esa litografiya usuli bo‘lib, unda dastlabki ishni xattot bajargan. Xattot bosiladigan kitobning matnini maxsus qog‘ozga ko‘chirgan. Bu qohozdagi matn toshqolip sirtiga o‘tkazilgan va

kimiyoviy ishlov berilgan. So'ngra o'sha toshqolipdan nusxalar olingan. Xattot toshbosmaga matn ko'chirganda asosan nasta'liq xatidan foydalangan.

Insoniyat tarixini o'rganishda moddiy manbalar bilan birga ma'naviy manbalar muhim rol o'ynaydi. Ma'naviy manbalarni yozuvlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Yozuvlar kishilik jamiyatining eng bebaho kashfiyotidir. Yozuvlar qadimdan rasm, maxsus belgilar – iyerogliflar, alifbodagi harflar ko'rinishida bo'lgan.

Yozuvlarni o'rganish qadimdan: hind, yunon, rim diyorlarida o'rganish hayotiy zaruriyat bo'lgan. Chunki u jamiyatlarda diniy materiallar, ilmiy-siyosiy xabarlarni yozma ko'rinishda saqlab qolish juda muhim edi. Yozuvlarga e'tibor, ayniqsa, Islom dini paydo bo'lganidan so'ng musulmon mamlakatlarida yana keng avj oldi. Nafaqat, avj oldi, balki yozuv san'ati yanada yuqori darajaga chiqdi.

XX asrga kelib Turkistonda jadidchilik harakati yuzaga kelishi bilan keng xalq ommasini savodli qilish, ularni zamonaviy ilm-fan bilan tez va oson tanishtirish boshlandi. Zamonaviy ilm-fan bilan tanishish uchun esa zamonadagi mashhur bo'lgan xorijiy tillarni bilish esa juda muhimdir. Shuni inobatga olgan holda Ibrat yozuvlar tarixiga oid «Jome' ul-xutut» («Xatlar majmui», 1912) asarini yozdi. Asarda lotin, yunon, xitoy, hind, arab, krill yozuvining kelib chiqishi, rivojlanish tarixi haqida ma'lumot berilgan.

Ibratning «Jome' ul xutut» asarning yana bir nusxasi Andijondagi «Cho'lpon» muzeyida saqlanmoqda. Asar 123 sahifadan iborat bo'lib, toshbosma usulida 1912-yil Namanganda «Matbai Is'hoqiya» bosmaxonasida chop etilgan. Asarning 1-2-sahifalari mavjud emas.

O'tgan asrimizning boshlaridan boshlab bosmaxonalar ochish keng quloqch yoydi. Shunday bosmaxonalardan biri Ibrat tomonidan tashkil etilgan «Matbaai Is'hoqiya» edi. 1908 yilda Is'hoqxon Ibrat Orenburg, Ufa shaharlarida bo'ladi. U yerdagi Gaufman degan matbaachidan pulini o'n yil mobaynida to'lash sharti bilan kreditga litografik mashina sotib oladi va uni juda katta mashaqqatlar bilan Orenburgdan

Qo‘qonga poezdda, Qo‘qondan To‘raqo‘rg‘onga tuyalarda olib keladi. 1908-yil aprel oyida bosmaxona tashkil qildi va «Matbaai Is’hoqiya» nomi bilan ishga tushirdi. Matbaa ishlaridan ancha habardor bo‘lgan Husain Makaev Is’hoqxon bilan yonma-yon turib ishladi. Turkiston o‘lkasining chekka bir qishlog‘ida matbaaning vujudga kelishi o‘zbek xalqining ta’lim-tarbiya, marifat sohasidagi ulkan yutug‘i edi.

Ibrat ko‘p asarlari qatori “Jome’ ul xutut” asarini ushbu o‘zi ochgan bosmaxonasida chop etildi. Biz o‘rganyotgan asarning qo‘lyozma nusxalari mavjud emasligini inobatga olib, asarning toshbosma nusxalarini tadqiq etamiz. Olimning mazkur asari katta hajmda — 132 betdan iborat bo‘lib, 1912-yili o‘z bosmaxonasi — «Matbaai Is’hoqiya»da nashr qilindi.

Asarning 3 ta Abu Rayhon Beruniy nomidagi Qo‘lyozmalar fondidagi Toshbosma asarlar qismidagi inventar raqami 621, 622, 14341, 15233 va Andijon shahridagi Cho‘lpon muzeyidagi ekspanat sifatida saqlanayotgan nusxalari mavjud.

Asar toshbosma shaklida chop etilgani uchun barcha variantlar bir xil shaklda va bir usulda chop etilgan. Asar oddiy qog‘ozga nasta’liq uslubida shaxsiy xatda yozilgan. Asar 132 bet, har bir sahifa 9 misradan iborat bo‘lib, har bir sahifa ramka - hoshiyaga olingan. Sahifaning tepa qismining o‘rtasiga sahifa raqami yozilgan. Asarning 2-127-betlarida asosiy qism, 128-131-betlarda asarda yo‘l qo‘yilgan xatolar izohi berilgan.

“Bu kitobni tasnifin va taba’in birinchi martabada bo‘lgan sababi ham kitobat birdan bo‘lgan. Sabab ham matba’ yangiligi shahrimiz tamadduni yangilik. Kotiblari kitobat tutishda odat qilmaganligig‘a sabab, jame’ bo‘lub oncha-muncha xatolar ko‘bdur. Avvalo rajo shulki, avvali safhada qo‘yulgan bu etizor safhasida yozilgan xato va savob juzvlarini har qaysi safhada xato ko‘zga ko‘runsa va qazo ko‘rulsal hal bo‘lur uchun tartiblangan. Ko‘rudsun munda ham muvofiq marom mutolaa bo‘lur. So‘ngra bu tahririmizda quruq har xil xatolar tarixi va ta’limi yozilgandur”. Yuqoridan ma’lum bo‘ladiki, ba’zi so‘z va iboralardagi xatolari uchun izoh qoldirilgan.

Asarning 131-sahifasida Husayn Makaev tomonidan bildirilgan so'ngi so'z - maqto'v berilgan: *“Eski osor va eski zamonlardagi millatlarning, xususan, sharq xalqlarining xat va yozuvlari ila tanushliqni xohlagan ilmu fan havaslilari uchun, xususan, islohi huruf masalalari kabi g'oyat muhim muhohasalar jarayon etkan. Bizi zamonda bu kitobda to'planmish necha xil eski yozuvlar bu masalani oyrucha diqqatga sabab bo'lsalar kerak. Fozil Is'hoqxon to'ra hazratlarining ko'b ijti'odlar sarf etub vujudg'a keturilgalari(keltirilgan) bu xat nusxalarining sharhindagi kitobati ila matba'ni ba'zi qusurlaridin qat'iy nazar sanoati nafi'yadin bo'lgan eng eski yozuvlarni bizga umrlikka bir asar qoldirg'uvchi bu kitobning Turkistondan nashr qilinuvi bizning uchun o'zi bir sharaf deb bilam. Ammo millat uchun ahamiyatlik yoki ahamiyatsizligi haqidagi tanqid va fikrlarni ilmu fan hurmatina ahli qalam va ahli fan suygan ulamolarning vaqtlarig'a topshuram Husayn Makaev biqolam Mullo O'tab”*.

Asar badiiy emas, balki ilmiy xarakterga ega bo'lgani uchun asar tuzilishi ham o'ziga xos. Asar an'anaviy basmala bilan boshlanib, hamdu sano keltiriladi.¹

Hamdu sano qismidan so'ng sababi ta'lif ya'ni asarni yozishdan maqsad berib o'tiladi. To'raqo'rg'onlik Is'hoqxon bolalik paytlaridan qadimiy va olam yozuvlariga qiziqishlari unga orom bermaganligini, shu sababdin olam xatlarini, Islom xatlarini o'rganganligi aytadi.² Ironiy, suryoniy, yunoniy va ingliz yozuvlarini Hindistonning Bombay shahrida o'rgandi. Asar yozilishida ushbu bayt asos qilinib olindi: *va ham millatimizga yagona bir tarix qoldirmoq qasdinda ham olama bir osor qoldirmoq niyat etub bu masra'e mujibi:*

*Asardurki olamg'a o'lg'aynishon,
Kishi beasardur ketar benishon...*³

“Jome”ni xalqimizga tushunarli bo'lishi uchun turkiy tilda yozdi va keyingi taboqda forsiy ila yozilishini bayon qiladi: *jome' uchun “Jome' ul xutut” tasmiya*

¹ “Jome' ul-xutut” – Namangan, Matbaai Is'hoqiya, 1912. 3-4 b.

² O'sha asar. 4-5 b.

³ O'sha asar. 7-b.

aydub(edub) o‘z xatimiz va o‘z tilimiz va o‘z matba‘mizda taba’ qilmoq maqsad bo‘lub, tabi’ sharif ahli raso va qalbi latif ahli zakolarga peshkash qildim.⁴

⁴ O‘sha asar. 8-b.